



# «ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍŃ INTEGRACIYASÍ»

atamasındaǵı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARINING XULQ-ATVORI O'ZGARISHIGA OILANING TA'SIRI

**Turumbetova Zamira Yusupbayevna,**  
*Qoraqalpoq davlat universiteti*  
*“Pedagogika va psixologiya”*  
*kafedrasining v.v.b. dotsenti*

**Annotatsiya.** *Maktabgacha yoshdagi bolalarining xulq-atvori o'zgarishiga ta'siri, tarbiyani eng avvalo bola oilada oladi. Oilada farzand tarbiyasi ham ota ham ona bilan birgalikda amalga oshiradi.*

**Kalit so'zlar.** *Ota-ona muomlasi, farzand tarbiyasi, oila tushunchasi, ommaviy madaniyat, insonparvarlik tushunchasi.*

Har qanday inson ijtimoiy muhitda o'z o'rniga ega bo'lishi uchun avvalo uning xulq-atvori va intellektual qobiliyatiga katta e'tibor qaratish kerak. Insonning yetuk komil shaxs bo'lib katta bo'lishiga uning o'sayotgan ijtimoiy muhit hamda oilaning o'rni katta. Chunki inson bolalikdan tarbiyani oiladan oladi. Oiladan keyin esa katta bo'lgani sayin ijtimoiy muhit ya'ni do'stlari, sinfdoshlari hamda maktabgacha ta'lim muhitida inson asta sekin tarbiyalana boshlaydi. Maktabgacha ta'lim muhitidagi bolalarning xulq-atvori o'zgarishiga oilaning ta'siri haqida aytadigan bo'lsak "Qush uyasida ko'rganini qiladi" chunki biz unga qanday tarbiya bersak shu tarbiyani ijtimoiy muhitda ko'rsatadi. Kimlardir yaxshi tarbiya bera oladi yana kimlardir xato tarbiya berishi oqibatida esa kelajakda o'sha bolaning jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishida qiyinchiliklarga duch kelishiga sabab bo'ladi.

**Oila** - jamiyat hayotining kichik bir debochasi bo'lib, har tomonlama sog'lom, barkamol avlodni voyaga yetkazish uchun ma'sul bo'lgan g'oyat muhim tarbiya o'chog'idir.[1].

Oila tarbiyasida doimiy tarbiyaviy ta'sirchan kuch - oilada ruhiy xotirjamlik, samimiy munosabat, ota-ona obro'sining yuqori bo'lishi, bolalarga talab qo'yishda oila kattalari o'rtasidagi birlikning saqlanishi, bola shaxsini mehnatga tarbiyalashga alohida e'tibor berish, bolani sevish va izzatini joyiga qo'yish, oilada qat'iy rejim va kun tartibini o'rnatish, bolaning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish, boladagi o'zgarishlarni kuzatib borish, undagi mustaqillikka intilish va tashabbuskorlik sifatlarini qo'llab-quvvatlash va h.k. Oila qanchalik tartibli, uning a'zolari o'rtasidagi munosabat samimiy bo'lsa, oila tarbiyasi ham shunchalik muvaffaqiyatli bo'ladi.

Farzand tarbiyasida ota-onaning muomalasi muhim o'rin tutadi. Bola ota-ona tomonidan qo'pol, dag'al so'zlar eshitib, kaltak yeb katta bo'lsa, bu uning tabiatiga



# «ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍŇ INTEGRACIYASÍ»

atamasındaǵı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya

salbiy ta'sir qiladi. Bu esa o'z navbatida oiladagi nosog'lom muhitda tarbiyalanayotgan boladan "ma'naviy kasal" insonlar shakllanadi. Ular esa jamiyat ma'naviyatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Oilada ota-onalar "ommaviy madaniyat" ta'siriga berilib ketishi oqibatida farzandlarning tarbiyasiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.[2]

Masalan oilada maktabgacha yoshdagi bolalar bo'ladigan bo'lsa ularning har bir yosh davrida krizislar uchraydi. 3 yosh krizisi hamda 7 yosh krizisi bu davrlarda ularning diqqat etiboriga hamda xulq atvoriga e'tibor qilish talab qilinadi. Ular bilan ko'proq vaqtini o'tkazishi uning beradigan savollariga aniq javob berish uning xulq atvoriga katta ta'siri bor. Atrofdagi bolalar bilan munosabatining yaxshi bo'lishi, tez do'st topishi bog'chada tengdoshlari bilan munosabat o'rnata olishi ham oilada beriladigan tarbiyaga bog'liq. Oilada farzand o'z fikrini to'liq aytishi ham uning jamiyatda fikrlarini qo'rqmasdan ayta olishiga yordam beradi.

Barkamol avlodning tarbiyasi haqida gapirar ekanmiz Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning **"Kelajak – bog'chadan boshlanadi"** degan fikrlari beixtiyor yodimizga keladi. Darhaqiqat bog'cha bu bolalarimizning ham tarbiyaviy ham intellektual bilimlarning olishilari uchun dargoh hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda tarbiyalanadigan axloqiy xususiyatlar, xulq-atvor qoidalari orasida insonparvarlik muhim o'rin tutadi. Insonparvarlik hissi axloq normalari va qoidalarini o'rgatish asosida rivojlanadi. Buning uchun bolalarni oilaviy marosimlar va urf odatlar orqali yaxshi ishlar qilishga o'rgatib borish kerak. Insonparvarlikni tarbiyalashda bolalarning yoshini e'tiborga olish lozim.[3].

Maktabgacha yoshdagi bolalar axloqiga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan omillardan biri shuki yosh davrdagi bolalar kattalarga ta'qlid qiladilar. Oilaviy marosimlarda oilada katta yoshdagi insonlarning bir biriga va atrof muhitga, bo'ladigan voqielikka bo'lgan munosabatlari albatta kichik yoshdagi bolalarga ham yo ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu o'rinda maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalarida tahsil olishi ham bog'cha va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishi zarurligini alohida aytsak bo'ladi. Masalan katta yoshdagi insonlarga bo'lgan hurmatni ularni ko'rgan paytimizda salom berishni biz farzandimiz ko'z oldida qilsak, ular ham bizga shu narsani jamiyatda ko'rsatadi. Biz oilada deraza oldida changlarni olishimiz yoki bo'lmasa oilada otaga, onaga bo'lgan munosabatni biz o'zimizda ko'rsatishimiz ham uning xulq-atvori ijobiy tamonga o'zgarishiga katta ta'sir qilishini ko'rishimiz mumkin.



# «ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍN INTEGRACIYASÍ»

atamasındaǵı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya

Xulosa o'rnida shuni ayta olamizki, biz jamiyatimizda, umuman oila muhitda barkamol shaxs tarbiyalamoqchi bo'lsak uning oiladagi tarbiyasiga katta e'tibor berishimiz lozim. Uning oiladan keyingi boradigan muhitning yaxshi bo'lishini taminlashimiz. Oilada ko'proq bola bilan shug'ullanishimiz uning fikrlarini inobatga olishimiz ham uning kelajakda barkamol hamda komil inson bo'lib ulg'ayishiga ta'sir kuchi katta.

### Foydalangan adabiyotlar:

1. Avloniy. "Turkiy guliston yohud axloq". T. "O'qituvchi". 1994-y 55-b
2. Akramova F.A. "Oilada sog'lom psixologik muhitni tarkib toptirishning ijtimoiy-psixologik asoslari" T: "Shams ASA" 2014-yil 185-b
3. Sodiqova Sh "Maktabgacha pedogogika" Toshkent 2013-y 97-b.